

**O'QUVCHILARNING ONA TILI DARSLARIDAGI FAOLLIGINI
OSHIRISHDA TASAVVURNING O'RNI**
**THE ROLE OF IMAGINATION IN INCREASING STUDENTS' ACTIVITY
IN MOTHER TONGUE LESSONS**

*ADPI o'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi
 Nigoraxon Mamajonova Ilhomjon qizi
 Email: faxodbekmamajonov14@gmail.com
 Telefon raqam: +998945654766*

Annotatsiya

Ta'limga innovatsion yondashuv ona tili fanidan mavjud darslik va dasturlarni yangilik kiritish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tilimizdagi grammatik unsurlarni o'quvchi ongiga to'g'ri va aniq yetkazish imkonini beradi. Ona timizning tartibli tarzda dars jarayonlarini tashkil etishga doir fikrlarni rad etib tashkil etilgan yangi avlod darsliklarining eski darsliklar bilan solishtirish natijasida kelib chiqqan ilmiy farazlarni keng jamoatchilikka yetkazish zarurligi har bir ta'lim sohasidagi pedagog o'quvchilarga yangi bilim berish va ularga hech kimda uchramaydigan usul va metodlardan foydalanish maqsadida dars tashkil etilishi ta'kidlangan.

Abstract

An innovative approach to education has created the need to update existing textbooks and programs in the subject of the mother tongue. It allows to convey the grammatical elements of our language to the reader's mind correctly and clearly. The need to convey to the general public the scientific hypotheses resulting from the comparison of the new generation textbooks with the old textbooks, which were created by rejecting the ideas of our motherland regarding the organization of lesson processes in an orderly manner. it is emphasized that the lesson will be organized in order to use the methods.

Kalit so'zlar: innovatsiya, tasavvur, metodika, ta'lim standartlari, tehnologiyalar.

Key words: innovation, imagination, methodology, educational standards, technologies.

Bugungi kunda ta'limning muhim yangiliklaridan biri Davlat ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iborat. Bu ishni amalga oshirmas ekanmiz, ta'lim-tarbiya sohasida sifat va samaradorlikni oshirish, o'quv jarayonini barkamollashtirish murakkab kechishi mumkin. Umumta'lim fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi shundan iboratki, o'quvchilarda fanlar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalarni muloqot va hayotiy faoliyati jarayonida qo'llash malakasini

shakllantirishga qaratiladi. Chunki bugungi rivojlanayotgan davr o‘quvchisi kundalik hayotda uchraydigan turli holatlarda o‘zini erkin tuta olishi, fikrini tushuntira olishi, ommaviy axborot vositalaridan, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatilayotgan lavhalarni o‘rganib, o‘zi uchun muhim bo‘lgan manbalarni olishi, baxs-munozaralarda erkin ishtirok etishi, shaxsiy dunyoqarashi hamda fikrlarini ifoda eta olishi lozim sanaladi. Umumta’lim mакtablarida yangi ta’lim texnologiyalarini quvchilarga taqdim etish, avvalo, o‘quvchilarning o‘yplash, tasavvur qilish, fikrlash bilan birga zehn qobiliyatlarini, ularning psixologiyasini chuqur o‘rganishni talab qilmo’qda. Bugungi kunda o‘quvchilarning bilimlarini chuqur o‘zlashtirish usullari bo‘yicha tadqiqot olib borish, ularni mustahkamlash yo‘llarini izlab topmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan va chet tillarini bilish zamon talabi hisoblangan bir muddatda, yoshlarning ongi va maqsadlarini to‘g‘ri shakllantirish, uni milliy ta’lim dasturlariga asoslangan holda tarbiyalash oliy maqsadimizdir. O‘quvchining qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqib ma’lum fan doirasida, balki xorijiy tillarni bilish va o‘rganish bosqichi doirasida ona tilimizni muhim hamda tillarni o‘rganish asosi sifatida tushuntirish muhimdir. Uning muhimlik darajasini o‘quvchilarga anglatgan holda dars tashkil etish tehnologiyalarini tatbiq qilish o‘rinli. Bugungi ilmga tashna avlodni bilimini mustahkamlash va milliy ona tilimiz ruhida tarbiyalash, Yangi O’zbekiston mutaxasis pedagog kadrlarining dolzarb masalasidir. Buning zamirida o‘qituvchi o‘z fanning yetuk mutaxasisi bo‘lish bilan birga o‘quvchilarning psixologiyasi bilimdoni bo‘lish ham talab etiladi. Shundagini muallim ona tilimizga o‘quvchini jalb qila oladigan va uni muhim ekanligini anglatadigan metodika yarata oladi. Yangi pedagogik tehnologiyalar o‘quvchini, ayniqsa, bitiruvchi sinflar tanlagan yo‘nalishi doirasida pedagogik-psixologik yondashilgan holda ona tilimizni muhimlik darajasini oshirish muhimdir. O‘z tilini anglamagan uning mazmun mohiyatini tushunmay turib har qanday so‘hada yetuk mutaxasis bo‘la olmasiligi, til bilish darajasida tez va yuqori natijalarga erishish ham mushkuldir. Har qanday tilning nazariy asosini bilish uchun o‘z ona tili grammatikasini yaxshi bilish lozim. Shu kabilarni pedagogik-psixologik tehnologiyalar orqali yetkazish o‘quvchilar o‘ngida ona tilimizga qiziqish uyg‘onadi. Shu kabi psixologik, pedagogik izlanishlar mакtablarda darslarni to‘g‘ri rejallashtirish, tashkillashtirish va o‘tkazish dolzarb omillardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarda ona tili fanini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ularning bilim va salohiyatini ongli ravishda o‘zlashtirishlariga yordam beradigan, raqobatbardoshlilagini oshiradigan, mustaqil tafakkur yuritish, topshiriqlarni to‘g‘ri va dadillik bilan bajara o‘lish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan o‘qitish usullaridan unumli foydalanishda tasavvur va zehnning o‘rni beqiyos.

Bir mamlakatda bir fandan bir necha xil darslik mavjud bo‘lishi o‘ta tabiiy hol. Lekin o‘sha davlat qat’iy ta’lim standartlarini belgilab olishi kerak. Hukumat komissiyasi dasturlar va darsliklarning standartlarga mos yoki aksincha, ekani haqida

xulosa berib tursa bas. Ta’lim standartlari ham bir davlatda yagona bo‘lishi lozim. Prezident maktablari uchun alo’hida standart, ijod maktablari uchun alohida standart, ixtisoslashgan maktablar uchun alohida standart, umumiy o‘rtalim maktablari (oddiy maktablar) uchun alohida standart bo‘lishi – mantiqsizlik.¹

Bugungi kun uchun qo‘yilayotgan pedagogik-psixologik talablar ham shundan iboratdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan darsliklar to‘g‘risidagi fikrlar maqsadga muvofiqdir. Bugungi kun darsliklari davlat ta’lim standartlariga mos tarzda yangi usullarda tuzilishi kerak. Darhaqiqat, darslik o‘quvchi savodxonligiga xizmat qilishi kerak. O‘quvchi har qanday darslik yangi tuzilmasin, u o‘quvchining kelajak bilimi poydevori mustahkamligi yo‘lida tuzilishi darkor. Darslik va dastur yozish bir kishining ishi emas.

Ona tili o‘qituvchisi o‘quvchilarga bilim berishda o‘z tajribasi samarali va mazmunli usullardan foydalangan holda, o‘quvchining bilim va malakasini rivojlantirish hamda olgan bilimini amalda qo‘llay olish qobiliyatidir. Ta’lim mazmunini asosini darslik va o‘qitishga qo‘yilayotgan talablar tashkil etar ekan. o‘quvchiga, shu asnoda, bilim berish, mukammal va to‘laqonli tamoyillarga asoslangan holda, ta’lim standartlarida chetga chiqmagan holda o‘z fikr va mulohazalarini yetkaza olishi va tinglashi muhim masaladir. Bu ham pedagogik, ham psixologik o‘qitish hisoblanadi.

Har bir pedagog o‘z bilim darajasidan kelib chiqib o‘quvchilarga grammatikani tushuntirib o‘tmoqda, darslikda berilgan mavzuga moslaydi. Afsuski, mavzuni o‘quvchiga to‘g‘ri va tushunarli yetkazib bera olmayotgan ustozlar ham uchramoqda. Bizning eng og‘riqli nuqtamiz ham shu hozir.

5-sinf darsligiga tinglash ya’ni audio darslar qo‘silishi ham maqsadga muvofiq bo‘ldi, chunki ayrim mavzular talaffuzga muhtoj masala unlilar va undoshlar tasnifi bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari qator va qo‘sish undoshlar, x va h ning tasnifi, umuman olganda, deyarli barcha mavzuga tinglash taqdim etilishi o‘rinlidir. Darsliklar tarkibiga o‘sha disklarni qr kod sifatida joylab qo‘yish juda o‘rinli, chunki hozirgi rivojlanayotgan zamonda yoshlar o‘z ona tilisini ham chet tillari kabi bosqichlarda o‘rganishi talab qilinmoqda. Biz yoshlarni shu tartibda o‘qitishga bolaligidan moslab borishimiz darkor. Har bir hozirgi rivojlanayotgan yosh avlod zamon talablariga intilmoqda o‘z ona tilisini ham yuqori saviya va qiziqish bilan o‘qishi til imkoniyatlarini kenggaytirishi tabiiy. Bundan tashqari mavzularga o‘quvchi tasavvuri uchun xizmat qiladigan mashqlar qo‘sish ham o‘rinlidir. 6-sinf² Masalan, ”Sifat so‘z

¹.me/birgap (<https://t.me/birgap>) SH. Tursun qarashlari kanalidan

² Mahmudov.N va boshqalar/5-sinf ona tili uchun darslik. – T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2020y,192 b,8-b

turkumini takrorlash” mavzusi berilgan bo‘lsa yangi 6- sinf darsligida³ esa o‘tilayotganda unga aloqador bir nechta rasmlar taqdim etib, ular nimalarga o‘xhashini so‘rashingiz mumkin.

Darsliklar, asosan, tasavvur va ijodiy fikrlashga yo‘naltirilgan holda tuzilgan bo‘lishi joiz. O’quvchini ushbu g‘oyalar sari yetkazish uchun o‘qituvchi mahorati yuqori bo‘lmog‘i lozim. Darsni adabiyot bilan bog‘lash va badiiy matn bilan ishslash, tasavvur va tafakkur, nutq rivoji uchun hizmat qilishi lozim. Bizning maqsadimiz, darsni badiiy adabiyot yo‘ki adabiyot darsligi bilan bog‘lab o‘tishni tavsiya qilamiz. Masalan, 6-sinfidagi biro’rtta mavzusida lirik chekinish tarzida 5- sinf adabiyoti darsligidagi “Dunyoning ishlari” asaridan parcha berib uni mazmuni va morfologik tahlil qilishga o‘rgatilsa, dars mazmunli va esda qo‘ladigan bo‘ladi. Chunki ona doim ham o‘quvchi o‘ngiga oson ta’sir qiluvchi va jalb qiluvchidir.

“Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan alladan dunyoning narigi chekkasidagi go‘dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go‘dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham Ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir”.

Darhaqiqat, o‘quvchi intellektini zehnini rivojlantirish uchun bir qancha metodlar orqali rivo‘jlantirishimiz mumkin. Mavzu doirasida tasavvur va zehn va tafakkurni ochiq ravishda aytishni va idrok etishni o‘rganadi. Bundan tashqari, PISA xalqaro tadqiqotining o‘qish savodxonligi bobida: Insonning matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma‘lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma’no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita o‘lish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, matn bilan ishslash o‘quvchilarni maqsad sari intilish qobiliyatini rivojlantirgan va PISA ga tayyorlagan bo‘lamiz.

Xulosamiz shundan iboratki, matn bilan ishslashning eng samarali tomonlaridan yana biri o‘quchining nutqi rivojlanadi, badiiy matn bilan qiziqishi ortadi. Eng muhim, o‘quvchilarda, ayniqsa, 5-7-sinflar misolida qaraganimizda ularni to‘g‘ri shakllantirgan bo‘lamiz. 5-sinf o‘quvchilariga harakatli o‘yinlar asosida dars o‘tish

³ Mavlonova K.M va boshqalar/Ona tili 6-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022 -224b.

samarali natija beradi. Ammo uning noqulay tamonlari ham bor. O‘quvchilar orasida shovqinga olib kelishi mumkin. Chunki kichik yoshdagi bolalar o‘rtasida kelishmovchilik, shovqin kabi holatlar kuzatiladi, buni bartaraf etish uchun maktablarda ona tili fanimizni darslarini ham 2 guruhga bo‘lib o‘tishimiz darkor, – deb o‘ylayman. Ayniqsa, quyi sinfdan shu tartibda o‘tilsa, mavzuni yetkazib berish ham uni o‘quvchi o‘ngiga muhrlash ham juda samarali natija beradi. Axir, xorijiy tillarimiz maktablarda guruhga bo‘lib o‘rgatiladi, nima uchun? Chunki o‘z o‘quvchi bilan ishslash va unga alohida e’tibor bilan psixologik yondashish ham, mavzuni to‘g‘ri tasavvur va psixologik jihatdan yetkazish ham seqirra tashkillanadi. Bundan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, ona tili darslarini ham shu tariqa o‘tish bilim va tafakkuri kamolati uchun munosib va o‘rinli bo‘ladi. Va ana o‘sanda biz yuqorida sanab o‘tgan barcha pedagogik texnologiya va o‘yinli, harakatli usullarni qo‘llashimiz kutilgan natijani beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. <https://t.me/birgap> Sh. Tursun qarashlari kanalidan
2. Mahmudov.N va boshqalar/5-sinf ona tili uchun darslik. – T:; G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2020y,192 b,8-b
3. Mavlonova K.M va boshqalar/Ona tili 6-sinf uchun darslik. – T:. Respublika ta’lim markazi,2022 -224b.
4. Yusupova Sh “Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” ma’ruza matni 25-30- betlar
5. Yusupova Sh, G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. -T; “Bayoz” nashriyoti. 2013.
6. Yusupova Sh “Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” ma’ruza matni 25-30- betlar